# Investitsiyalar va qurilish

**2018 yil I chorak**

2018 yil yanvar`-martda respublikaning asosiy kapitalini ko`paytirishga 672,4 mlrd. so`m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o`tgan yilga nisbatan o`sish sur`ati 125,4 foizni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 149,0 mlrd. so`mni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

[illegible]

**2018 yil yanvar`-martda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi 2017 yilning yanvar`-martiga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 11,9 foizli punktga oshgan, mashina, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo`jalik jihozlari qiymati ulushi 0,6  foizli punktga kupaygan hamda boshqa harajatlarning ulushi 12,4  foizli punktga kamaygan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalgan kiritilgan investitsiya va kreditlar**

*(umumiy hajmga nisatan foiz hisobida)*




**Ijtimoiy soha ob`ektlarini qurish**

2018 yil yanvar-martda umumiy maydoni 203,4 ming kv.m. bo`lgan 1364 ta (2017 yil yanvar`-martga nisbatan 181,6 foiz) shu jumladan qishloq joylarida 54,7 ming kv.m. (113,0 foiz) 427 uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 200,6 mlrd.so`mi yoki 29,8 foizi turar-joy qurilishida o`zlashtirildi.

Kommunal qurilish sohasida 5,8 km. uzunlikdagi ichimlik suvi, 1,5 km. uzunlikdagi gaz tarmoqlari ishga tushirildi bu 2017 yil yanvar`-martga nisbatan mos ravishda 85,3 va 23,8 foizni tashkil qildi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 53,0 mln. so`m, shundan aholi mablag`lari hisobiga 19,7 mln. so`m, davlat byudjeti mablag`lari hisobiga 33,3 mln. so`m, gaz tarmoqlari qurilishiga esa aholi mablag`lari hisobiga 21,1 mln. so`m miqdorida investitsiyalar o`zlashtirildi.

**Qurilish faoliyati.** 2018 yil yanvar`-martda 402,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari bajarilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`sish sur`ati 119,1 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 69,2 foizi binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari, 9,0 foizi fuqarolik qurilishi ob`ektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari va 21,8 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to`g`ri keldi. Shu jumladan umumiy hajmdan 74,6 foizi yangi qurilish, rekonstruktsiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to`g`ri keladi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 391,1 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,2 foizni (2017 yil yanvar`-martga nisbatan o`sish sur`ati 119,0 foizni) tashkil qildi.

**Yanvar`-mart holatiga mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish tashkilotlarining o`z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti** *(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




*Ko'rib chiqildi:*


Izlash

- ⌂
- 品
- ✉

- Vazirlar Kengashi
- Statistik va tahliliy ma'lumotlar
- Vazirliklar va idoralar
- Shahar va tuman hokimliklari
- Hujjatlar
- Respublika mehmonlariga
- Elektron hukumat
- Interaktiv davlat xizmatlar